

**Onarboyeva Xusnida Shuhratjon qizi**

*Samarqand shahar 82-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali
ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

«Quyosh qoraymas» romanida mavzu nuqtayi nazaridan «o'ldi», «o'ldirdi», «o'lim» so'zlari ko'p qo'llanganiga guvoh bo'ldik. Biroq adib bu so'zlarni qayta-qayta takrorlashdan ko'ra, ushbu tushunchani ifodalovchi, asarning poetik qimmatini oshiruvchi metafoik birikmalarni qo'llashni ma'qul ko'radi. Masalan, «o'ldi» so'zini 6 xil, «o'ldirdi» so'zini 5 xil, «o'lim» so'zini 2 xil metaforik birikmalar bilan ifodalaydi: «...Agar birontamiz baloyi nogihonga uchrasak, xudo ko'rsatmasin, boshqalarimiz darrov chuqur qazib, albatta, yuzini qiblaga qaratib, yerga jo qilaylik» [3, 10]. «Umrning ishi har on uzilishga tayyorligi unga ma'lum edi» [3, 47]; «Ana qo'pol emaklagan fashist qorasi ko'rindi Bektemir o'q uzdi. Qora o'chdi» [3, 41]; «...Yigit tinmasdan otaverdi. U yoqdan o't chiqmadi. Novdachalar yana jimq otdi. Bektemir merganlikning natijasini ko'rmasa ham, sevindi: «Loaqal bittang qon bo'lding!»» [3, 41]; «Bir nechta o'rmalab elayotgan edi, granta bilan soldim. Ha, ikki uchi xarom qotdi» [3, 69]; «Atrofida jangchi o'rtoqlari yiqilar, ba'zilar muk tushib jim qotar, ba'zilar ajalning qo'lida to'lg'onar, ba'zilarini mina pora-pora uchirardi» [3, 50]; «Bir o'q bilan yonimda yer tishladi, boyaqish!» [3, 25]; «Ahvol tang vaqtda oshpaz Muxin – biz uni dyadya Mux derdik – pulyemotga o'tirib, nemislarning bir batalyon soldatini yerga mixdek qadab qo'ygan» [3, 194]; «Tevarakka minalar tusha boshladi. Mana bir jangchini qora loy bilan birga uchirdi» [3, 58]; «Bektemir yetguncha shop mo'ylov birini alla qilib qulatdi- da, so'nggisiga hamla qila boshladi... «Mo'ylov buni, albatta, yeydi!» – o'yladi yigit ichida va birinchisini, qochganini quva ketdi» [3, 40]; «Tutdek to'kish kerak. Shunda alamdand chiqasan, – dedi Bektemir tishini qisirlatib» [3, 44]. Buni quyidagi jadval orqali ham ko'rish mumkin:

O'lim	O'ldi	O'ldirdi
Baloyi nogihon	Qon bo'lmoq	Uchirmoq
Umr ishining uzilishi	Qorasi o'chmoq	Yerga mixdek qadamoq
	Xarom qotmoq	Alla qilib uxlatmoq
	Ajalning qo'lida to'lg'anmoq	Tutdek to'kmoq
	Yer tishlamoq	Yemoq
	Jim qotdi	

Bundan tashqari Oybek qalamida o'lim so'zi bilan bog'liq bir nechta individual metaforik birikmalar yaratiladi. Ushbu metaforalar asarning poetik qimmatini oshirish





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bilan birga, kitobxonlarni urushning dahshatlarini oqibatlarini ko'z oldida yaqqol tassavvur qilishga va mushohada qilishga chorlaydi. Masalan: «Qaytish qiyin. Bu yerda o'limning o'rog'i kamalakday katta» [3, 15]; «– To'g'ri, – dedi Bektemir o'ylanib, – o'limning bozori qizg'in, lekin Xudoga shukur, mana ikki haftadan buyon tirikmiz» [3, 38]; «E, o'lim jariga qulashga sal qoldim» [3, 47]; «O'lim to'zoni ko'zlarimizni ko'r qildi» [3, 24]; «Men o'lim vodiysida xizmat qilganman. Har ikki tomondan oqqan qonni yig'sa daryo bo'ladi» [3, 122]; «O'lim to'zoni ko'zlarimizni ko'r qildi» [3, 24]; «Ajal o'pib o'tdi. Bugun juda hazilni oshirib yubordi... Bizni asta-sekin chaynaydiganga o'xshaydi» [3, 77]; «...O'lim hazilvon bo'lib qoldi. ...Hazili qursin. Bu ahvoldan ko'ra rosa urib, yerga jo qilgani yaxshi...» [3, 22].

Adib jang so'zini qayta nomlashda ham «oybekona» yangi so'zlar yaratadi. Oybek so'z yasashda ham o'z uslubiga sodiq qoladi. O'zbek jangchisining samimiyligi, ayni paytda, o'ziga xos dunyoqarashga, fikrga ham ega ekanligini ham sedan chiqarmaydi. Ammo ta'kidlab o'tirmasdan bu holatni ifoda etadigan so'zni jangchi Asqar polvonning o'z tilidan yaratib qo'ya qoladi: «Bu qanaqa jang tushunib bo'lmaydi, – dedi Asqar polvon kallasini quyi solib. – Yalang minabozlik, to'pbozlik» [3, 38]. Aslida o'zbek tilida bunday yasalma so'zlar yo'q. Uni muomalaga kiritishni da'vo qilish ham o'rinsiz. Ular faqat shu matndagina qo'llangan. Ammo jang tasvirining g'oyat darajada o'zbekona ifoda vositasiga aylangan. Quyidagi muallif tilidan aytilgan so'zlar haqida ham shunday fikrni aytish mumkin: Bektemir qisqa nayzabozlikda bir fashistni qanday o'ldirganini aytdi [3, 43]; Ikki soat davom etgan chidamli bo'g'ishishdan keyin, dushmanning o't ochish nuqtalari birin-sirin yanchildi [3, 42]. Quyidagi misolda esa kompusni o'ziga xos o'zbekona yasalma «qiblanoma» deb ataydi: Huv, biz qayoqqa ketyapmiz? Komandirnikiga o'xshash qiblanomang bormi? – Ko'zim qiblanoma. Yuraver. – hey, adashmas qiblanoma! Qichqirdi Ali tajang kinoya bilan kulib, – o'ng bilan so'lni farqiga bormaysan-u, yana yo'lbilar bo'lganingga hayronman! Boshqa bir holatda bu darajadagi badiiy ahamiyat kasb eta olmasligini inobatga olgan holda bu yasalmalarni Oybek badiiy tafakkurininggina mahsuli deb ayta olamiz. Shu bilan birga, yangi so'z yaratish uchun, birinchidan, so'z va qo'shimchalarning xususiyatlarini mukammal o'rganib, ularning iste'moldan chetda qolayotgan qirralarini toppish, ikkinchidan, bu yangi so'zga imkon beruvchi hayotiy dalilni asoslash lozim. Ayni vaqtda bu ikki holat badiiy mahsulni barkamollashtiruvchi vositlarga xos xususiyatlarning tarkibiy qismiga aylanib ketishi kerak. Akademik adib Oybek yaratgan so'zlarda bu omillar namoyon. Shuning uchun ham yozuvchi qalamiga mansub so'zlar obyektivlik kab eta olgan.

Roman matnida jang maydonining dahshatli sahnalarini ko'rgan adib uni shunchaki aytish bilan qanoatlanmaydi, balki uning dahshatini kitobxonga bor bo'y- basti bilan yetkazishni xohlaydi: Davomli, og'ir janglardan keyin Asqar polvon bilan Ali tajang batalyondan beixtiyor uzilib, o'zlarini qandaydir qalin o'rmonga urgan edilar. Ali tajang ichida suyundi. «Xaytovur, jahannamning qirg'ogiga chiqib oldik» [3, 24]. Jang





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

maydonini jahannamga qiyoslagan adib keyingi o‘rinlarda buni yana ham aniqlashtirib «o‘lim qaynagan joy», «o‘txona», deb nomlaydi.

Ba‘zan qahramonlar tilidan urush va uning oqibatlarini biroz yumor ostida tasvirlanadi: Safar cho‘tir o‘rmonlar orqasidan ko‘tarilgan raketalarni va havoda uchgan rang-barang «cho‘g‘lar»ni birinchi dafa ko‘rganda. Ajinalar bazmi deb gumon qilgani va har xil duolarni pichirlab tong ottirganini so‘zladi. – Dev, ajinaning o‘zi ham ishtonini boshiga ilib bu tomoshadan qochadi! – dedi bog‘ilib jangchilardan biri [3, 46]. Yoki quyidagi parchada: ...Eh, peshona! Taqdir shunday kuchlik, toshdan bo‘lsang ham bir chertib yoradi seni! Urushda Azroil ham juda berahm, aziz joningni aldab-suldab sug‘urmaydi. Bir urib qo‘l-oyoqlaringni uchiradi. Bir zarbasi bilan boshing daraxt tepasida... – Ko‘zlarining uzilgan tanangga qarab baqrayadi! – qo‘shib qo‘ydi Ali tajang xirillab [3, 24]. Yuqoridagi parchalarda jangning «ajinalar bazmi», «tomosha» shaklida berilishi yoki urushda insonlar jonini naqadar omonat olib yurishlari tasviri biroz yumor ostiga olinganki, bu yumor aks ta‘sirga – kuldirish emas, yig‘latish, mushohada qilish ta‘siriga ega. Quyidagi jadvalda «jang» va «jang maydoni» so‘zlari o‘rnida qo‘llangan individual metaforik birikmalar ko‘rishimiz mumkin:

Jang	Jang maydoni
Ajinalar bazmi [86, 46]	Jahannam [86, 24]
Minabozlik [86,38]	O‘lim qaynagan joy [86, 122]
To‘pbozlik [86, 38]	O‘txona [86, 127]
Nayzabozlik [86, 43]	Olov bazmi qaynagan maydon [86, 33]
Bo‘g‘ishish [86, 42]	
Qilichlashish [86, 198]	
Taqdirning qichig‘i [86, 95]	
So‘qishmoq [86, 95]	

Oybekning til mahorati va individual uslubini aniqlashda metaforalarning o‘rni beqiyos. Chunki adib butun boshli abzasni metaforik tasvir bilan berish qobiliyatiga ega. Quyidagi parchada ham Oybek urushga bo‘lgan nafratini, uning sabab va oqibatlarini betakor o‘xshatish va metaforalar orqali bayon qiladiki, bundan so‘ng bu haqida biron so‘z deyishga o‘rin qoldirmaydi: «Dushmanga yaqinlashish! Oradagi masofa – tamoman boshqa masofa. Bu na dushmanga, na bizga tegishli. Bu o‘lim maydoni, buning samosi ham, yeri ham o‘lim bilan nafas oladi. bu yerdan odam dengizi quturib oqadi. Uning girdoblari to‘ymas, zolim, beomon ishtaha bilan hayotni yutadi. Bu yerda hayot hayotni bo‘g‘adi, temir temirni g‘ajiydi, o‘t o‘tni so‘ndiradi – hamma narsa mavhiyotga intiladi. Minglarcha chaqirim shimolga yur, minglarcha chaqirim janubga yur – odam saltanatidasan... Biroq bu muazzam hayotning mutlaq hokimi – o‘sal, yovuz, buzg‘unchi kuch uchun o‘z sohasi go‘yo torlik qiladi. Tinimsiz yutdigi daryo-daryo qonlar go‘yo uning jahannam chanqog‘i uchun bir tomchi; g‘ajidigi shaharlar uning tishlari orasida






MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS


qolgan... yangi luqmalar qidiradiki, mana beshakl, berahm, va benihoya och ajiva mahluq qora qo'llarini hech vaqt – na kechasi, na kunduzi yig'ishtiradi. Yuzlarcha chaqirim uzoqda tinch, beozor, boy qishoqlardan hayotning zolim ko'rgili bir hovuch kul yasaydi» [3, 50].

Oybek faqatgina bir so'zning o'rnida boshqa so'zlarni qo'llash bilan birga, buni jumlar va gaplar doirasida ham amalga oshiradi. Masalan birgina «sovuq qotdi», «sovuq o'tdi» birikmalari Oybek uchun «jo'n» ko'rinadi. So'zning qiymati va vazifasini yaxshi anglagan adib Rossiyaning qahraton qishini va uning jangchilarga ta'cirini obrazli qilib tasvirlaydi:



Bundan tashqari asar matnida quyidagi birikmalar ham sovuqning kuchini ochib berishga xizmat qilgan: Shamol g'azab bilan ingraydi [3, 56]; Kipriklar, mo'ylovlar, soqollarda ko'rkam qirov gullari. Yer jaranglaydi [3, 105]. Ko'rinadiki, Oybek sovuqning keskin va og'riqli holat sifatida tasvirlaydi. Muzning kesishi, ignadek sanchilishi, suyaklarni ninalashi, yuzni qamchilashi uning juda qattiq va charchagan, och, yupun askarlar uchun jarohatlovchi, og'riq beruvchi kuchligiga ishora qilgan. Tasvirlardagi «kesdi», «sanchildi», «yaladi», «qamchiladi» so'zlari sovuqning hujumkor va faol kuch sifatida ko'rsatishga xizmat qilgan. Qolaversa, kitobxon bu tasvirlardan jangchilarning urushdagi ayanchli holati va tabiat qarshisida ojizligini his qiladi.

Oybek obrazlarining tili ularni tipiklashtirish va individuallashtirishda katta ahamiyatga ega. Ya'ni har bir obraz tili u yoki bu darajada uning turmush tajribasi, xarakteri, madaniyati, fikrlash doirasi, psixologik holati haqida xabar beradi. Tilshunos olim R.Qong'urov badiiy asarning til tomondan shakllanishida avtor nutqi ham katta ahamiyatga ega ekanligi, uning xarakteri va kuchi obrazlar nutqidan ham sezilib turishi, shuning uchun ham chiroyli, mazmundor til bilan yozilgan asarni o'qiyotganda, diolog yoki monolog bilan tanishganda ayrim olingan obrazga emas, balki uni shuni tilda gapirtira olgan yozuvchiga tahsinlar o'qishimizni ta'kidlagan edi [3, 9]. Masalan, quyidagi Bektemir va Asqar polvonning diologi orqali adibning metaforalardan foydalanish mahorati va badiiy tafakkurining naqadar keng ekanligiga guvoh bo'lamiz: «Sovuq kun sayin qahrini oshiradi. Yer tosh qotgan, qor moylanmagan aravaday g'ijirlaydi... Asqar polvon qo'lini kuxlab, nafasini qisib:





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

1. Bek, burnim garimdori ishqalaganday achishyapdi-ku, – dedi.
 - Rus qishining tishi endi chiqayotgan emish. Mayli tezroq voyaga yetsin! – dedi Bektemir.
 - A? – ko‘zlarini olaytirdi Polvon. – Onang qor bo‘ronida tuqqanmi?
 - Onam saratonda yer tandirday qiziganda tuqqan, – dedi Bektemir kulib. – Lekin sen nemisning holiga bir qara. Och arvohday qaltiraydi. Rus qishi fritsning dushmani. Dushmanimning dushmani – mening do‘stim...
 - Rost ayatasan, Bekcham, – jiddiy gapirdi Polvon. – men ham payqayapman to‘ng‘iz qopgursovuqqa ojiz ekan. Biroq yalang‘och suvdan toymas deganday kun sayin battar quturmoqda...
 - Shoshgan o‘rdak ham boshi bilan sho‘ng‘iydi, ham dumi bilan... – dedi Bektemir» [3, 117].

Xulosa qilib aytganda, metaforalar «Quyosh qoraymas» romani matnida poetik aktuallikka ega bo‘lib, adib mahoratini ochishda, til uslubini aniqlashda, qolaversa, yangi o‘zbek tili xazinasini yangi terminlar bilan boyitishda ahamiyatli. Shuni aytish kerakki, qalamkash yaratgan so‘zlar, metaforik neologizmlarning xalq tiliga nima aloqasi bor, ular adabiy tilga kiradimi, yo‘qmi deb qarash to‘g‘ri emas. Haqiqatdan ham, yozuvchi quygan so‘zlar, ifodalar muayyan davrda faqat o‘sha muallif asarlarida mavjud bo‘ladi. Kelajakda ular milliy adabiy tilga kirishi ham, kirmasligi ham mumkin. Ammo yozuvchi yaratgan so‘zlar, xalq tilining imkoniyatlari g‘oyat kengligini, cheksizligi, hamma gap ana shu imkoniyatlarni topib, o‘rinli foydalanishda ekanligini ko‘rsatadi. Qolaversa, ushbu birikmalar yoki neologizmlar o‘sha asardagi g‘oyani payvandlash, g‘oyani yaxlitlashtirishdao‘ziga xos rol o‘ynaydi. Shuning uchun ularda voqelikning ma‘lum holatlari aks etadi. Shunga ko‘ra, yozuvchi qalamining o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi, san‘atini namoyon etuvchi omillardan biri sifatida qaralishi va o‘rganilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boymirzaeva S. Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi, filol.fanlari nom... dis. Avtoref. Samarqand, 2004, B-23.
2. Mahmudov N. Oybek she‘riyatidagi o‘xshatishlarning lingvopoetikasi. // O‘zbek tili va adabiyoti. 1985, № 6.
3. Oybek. Quyosh qoraymas. T., O‘zadabiynashr, 1971.
4. Karimov S.A. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. O‘quv qo‘llanmasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 1994. – 72 B.

